

## INSULTNI O'TKAZGAN BEMORLARDA TIBBIY REABILITATSIYANI UY SHAROITIDA TASHKIL ETISH VA TAHLIL QILISH

Boisov Suxrob Komiljanovich

Toshkent tibbiyot akademiyasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14824475>

**Tadqiqot maqsadi:** insultni o'tkazgan bemorlarda reabilitatsiyani uy sharoitida olib borish va reabilitatsiya davomiyligiga natijalarning bog'liqligini o'rganish.

**Tadqiqot materiallari va usullari:** 2023-2024 yillar oralig'ida "Reabilitatsiya" markazi a'zolari Toshkent shahrida 82 nafar insult o'tkazgan bemorlarga reabilitatsiya yordamini ko'rsatishdi. Reabilitatsiya yordamiga davolovchi jismoniy mashqlar va fiziodavolash usullari kiritildi. O'tkazilgan reabilitatsiya samaradorligi maxsus test va shkalalar yordamida baholanib borildi.

**Olingan natijalar:** Bemorlardagi o'zgarishlarni baholash uchun biz mushak kuchini baholash shkalasidan, harakat indeksi uchun indeks Berteldan, qo'llardagi (FAM-UE) va oyoqlardagi (FAM-LE) harakatni maxsus testlar bilan baholab bordik.

Mushak kuchini baholaganda 18 % da "0" ball, 34 % da "1" ball va 48% da "2" ball bilan baholandi. Bu katta qism bemorlarda, mushaklar taranglashgani ammo harakatning yo'qligini bildiradi.

Indeks Bertelda esa 8% da 0-20 ballgach bo'lib, to'liq yordamga muhtoj, 92% bemorlarimiz 25-60 ball bilan baholanib, yaqqol yordamga muhtoj deb baholandi.

Qo'llardagi (FAM-UE) harakatni maxsus testi 0-20 ball va oyoqlardagi (FAM-LE) harakatni maxsus testi 0-8 ball oralig'ida, bu kasallarning o'rtacha natijalari bo'lib og'ir harakat buzilishi deb mutaxassislar tomonidan baholandi.

82 nafar bemorlarimiz uchun 9 oylik (N=21, 25,6%), 6 oylik (N=45, 54,9%) va 3 oylik (N=16, 19,5%) reabilitatsiya dasturida ishlab chiqdik, dasturimiz tarkibiga faol va nafaol davolovchi jismoniy mashqlar kiritilib, uning asosiy vazifasi mushaklar tonusini oshirish, trofikani yaxshilash va harakatni tiklashdan iborat bo'ldi.

### Xulosa:

1. Insult asosan keksa yoshli insonlar orasida ko'proq va aynan ayollar orasida 67%) katta foizni tashkil qiladi.
2. Etiologik omillardan eng ko'p qismi gipodinamiya va semizlik egallaydi.
3. Bemorlarimizning eng keng tarqalgan shikoyati asosan bir tomonlama gemiparez va gemipligiya bo'ldi.